

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI



**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**



NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI



**IQTIDORLI TALABALARNING ILMIY TADQIQOT
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BO'LIMI**

2023-yil 1-son

IQTIDORLI TALABALAR ILMIY AXBOROTNOMASI

1

Namangan - 2023



SHAXS VA UNING KASBGA KO`NIKISHIDA PSIXOLOGIK OMILLARINING O`RNI

Jurayev Haydarjon Odilboyevich

Namangan davlat universiteti Psixologiya (faoliyat turlari) yo`nalishi ikkinchi
bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxsning kasb va xunarni to`g`ri tanlashi, undagi qiyinchiliklarni yengib o`tish, shu kasba ko`nikishning turlari va psixologik omillarining o`rni va ahamiyati yoritiladi.

Аннотация: В данной статье выделяется роль и значение правильного выбора человеком профессии и преодоление трудностей, виды адаптации к данной профессии и значение психологических факторов.

Annotation: This article describes the role and importance of a person's right choice of profession, overcoming difficulties, types of adaptation to this occupation and psychological factors

Kalit soʻzlar: SHaxs. Psixologiya, psixofiziologik, ko`nikma va malaka, ijtimoiy psixologik, adaptant, stress, frustratsiya, emotsional.

Ключевые слова: человек. Психологические, психофизиологические, навыки и умения, социально-психологические, адаптивные, стрессовые, фрустрационные, эмоциональные.

Keywords: person. Psychology, psychophysiological, skills and qualifications, social psychological, adaptant, stress, frostbite, emotional.

Bugungi kunda jamiyatimizda turli hildagi kasblar mavjud bo`lib bularning barchasi alabatda shaxsning faoliyati bilan amalga oshiriladi. Kasbning to`g`ri tanlash shaxsda uning ish faoliyatida unumdorlikni oshiradi uning aksi bo`lsa ish unumdorligi pasayadi, ishning unumdorligi ko`plab muvaffaqiyati albatda shu kasbga shaxsning ko`nikishi va jamoaga, o`zning kasbiga moslashishi bilan chambarchas bog`liq ravishda kechadi. Har bir shaxs xayot davomida ma`lum bir kasbni, xunarni, egalaydi va shu orqali oilasini boqadi , jamiyatga ma`nfati tegadigan shaxs bo`lib kamol topadi. SHu jarayonlarni kechishida shaxsda kasbiy ko`nikish va moslashuv yaxshi shakilansa uning ruhiyatida hechqanday noqulayliklar stress holatlari vujudga kelmaydi. Kasbiy moslashuv - bu, birinchi navbatda, moslashish, shaxsning kasb talablariga ko`nikishi, uning bajarilishi uchun zarur bo`lgan ishlab chiqarish, texnik va ijtimoiy xulq-atvor normalarini o`zlashtirishi. mehnat funktsiyalari va yangi ish sharoitlari. Turli xillik professional moslashuv ishlab chiqarish moslashuvi - ma`lum bir ishlab chiqarish guruhidagi



muayyan mehnat sharoitlariga moslashish. Kasbiy ko`nikish insonning ma'lum bir kasb doirasidagi qiymat yo`nalishlarini o`zlashtirishini, undagi motivlar va maqsadlarni anglashini, shaxsning yo`nalishlarini yaqinlashishini o`z ichiga oladi, professional guruh, professional guruhning roli tarkibiga kirish. Professional moslashish, shuningdek, barcha komponentlarni qabul qilishni o`z ichiga oladi kasbiy faoliyat: uning vazifalari, predmeti, usullari, vositalari, natijalari, ushbu kasb doirasidagi shart-sharoitlar. Vaqt o`tishi bilan professional moslashuv faol xarakterga ega bo`ladi, chunki inson nafaqat kasbga moslashadi, balki kasbni o`ziga moslashtiradi.

Shuning uchun inson va kasbning ko`p bosqichli o`zaro moslashuvini o`rganish maqsadga muvofiqdir. Moslashuv insonning kasbiy rivojlanishi bilan chegaralanib qolmaydi, moslashuvdan so`ng kasb egasi tomonidan boyitish, uning tajribasini ijodiy o`zgartirish bosqichlari kuzatilishi mumkin. Ijtimoiy-kasbiy moslashuvning ijtimoiy tarkibiy qismi xodimning mehnatni tashkil etish sharoitlariga, boshqaruv tizimiga, boshqaruv usullariga, butun kompleks kompleksiga moslashishi bilan bog`liq. ijtimoiy munosabatlar korxona yoki tashkilotda. Ijtimoiy-professional moslashuvning ijtimoiy-psixologik tarkibiy qismi shaxsni mehnat jamoasiga kiritish, jamoadagi munosabatlar va xulq-atvor normalarini o`zlashtirish jarayonidan iborat.

Ko`rib turganimizdek, nisbiy mustaqillikka ega bo`lgan kasbiy va ijtimoiy-psixologik moslashish jarayonlari doimiy o`zaro ta'sir va o`zaro ta'sir sharoitida davom etadi.

⁶¹Kasbiy ko`nikishning quydagicha turlari mavjud bo`lib ular quydagilarni o`z ichigam oladi:

- birlamchi- kasbiy faoliyat tajribasiga ega bo`lmagan yosh mutaxassislarning moslashishi (masalan, oliy o`quv yurtlari bitiruvchilari);
- Ikkilamchi- kasbiy faoliyat tajribasiga ega bo`lgan mutaxassislar (masalan, ishini o`zgartirishga majbur bo`lish vaziyatida).

1.G`oziev. E.G`.,Mamedov K.K. Kasb psixologiyasi. Toshkent,2003.

2.G`oziev. E.G`., Kasb va shaxs . Toshkent, 1996.

3.Z.B.Qurbanova D.D.Oribboyeva ., Mehnat va muhandislik psixologiyasi “Usmon nosir media”
Namangan 2022

4Кулагин Б.В.

Основы профессиональной психодиагностики. Л..1984.



Yosh mutaxassislar ko`nikishni o`rganishga bag`ishlangan tadqiqotlarda aniqlanishicha, oilalarda kasbiy ko`nikish muvaffaqiyatli amalga oshadi, oila qurmagan yosh mutaxassislarda esa ijtimoiy-psixologik moslashish muvaffaqiyatli kechadi.

Birlamchi ko`nikishda odatiy xulq—atvor stereotiplarining keskin buzilishi sodir bo`ladi. Mazkur davrda yangi maxsus rolni o`zlashtirilishi uchun xodimga qo`llab quvatlash va g`amxo`rlik qilish zarur bo`ladi. Murabbiylik bu maqsadlarga erishish uchiun eng samarali yo`l bo`lishi mumkin.

Ikkilamchi ko`nikish uchun ahamiyatli shaxsiy omil bu xodimning yangilikni qabul qilishga tayyorligi hisoblanadi. Bu tayyorlik uning ma`lumoti va malaka darajasi bilan belgilanadi. U ta`lim tizimining insonning mustaqil bilim olish qobiliyatini shakillantirishga, ularni dimiy to`ldirib boorish zarurligiga yo`naltirilganligi bilan bog`liqdur.

Kasbga ko`nikish ko`pqirrali jarayon bo`lib, shuning uchun uni quydagi asosiy turlariga ajratiladi:

- Psixofizyalagik
- Ijtimoiy psixologik
- Kasbiy ko`nikish

Bularning har biri yangi kelgan mutaxassisda o`ziga yarasha murakkablik, qiyinchilik va muammolar paydo qilishi mumkun.

Qiyinchiliklar sababi esa. odatda:

- Yangi sharoitni tushunib olish va kerakli yechimini topishga yordam beruvchi, zarur axbirotninig yetarli emasligi yoki kerakli vaqtda olinmaganligi;
- Zarur kasbiy tajriba va malakaning yo`qligi;
- Bir vaqtning o`zida bir nechta juda muhim vazifalarni yechish kerakligi;
- Vaziyatni o`rganish, yechim qabul qilish, o`zining yangi majburiyatlarini bajarish, foydali aloqalar o`rnatish, faoliyatning yangi elementlarini o`zlashtirish, ayniqsa o`zining fel atvorini astoydil o`zgartirish;
- Kasbiy etika normalari bo`yicha tasavvuruning yetarli emasligi va o`zini mutaxassis sifatida ko`rsata olmaslik;
- O`z haqida atrofdagilarda ma`lum bir ijobiy fikr shakillantirish zaruriyati, doimo baxolash zonasida bo`lish, bazida o`zi haqidagi boshqalarning nomuvofiq fikirlarini o`zgartirish zaruriyati.

**Psixofiziologik ko`nikish-** bu organizmning yangi fiziologik va psixofiziologik vazifalariga, rejimiga, mehnat qilish tempi va ritmiga, ishlab chiqarish muhitining sanitar gigienik omillariga, ovqatlanish va dam olish rejimini tashkil etishning xususiyatlariga o`rganishni nazarda tutadi.



Xodimning nomuvofiq psixofiziologik holatida adaptatsion o`zgarishlar, stressga olib keluvchi ruhiy zo`riqishni paydo qiladi. Kasbga ko`nikish bunday sindrom belgi berishi, ko`pincha yashirin kasbiy yaroqsizlik mavjudligiga ishora bo`lgani sababli, bunday hollarda psixologik hamrohlik muhim kasbiy psixofiziologik xususiyatlarni diagnostika qilishdan iborat bo`ladi. Xavotirlilikni olib tashlash va mutaxassisning kasbiy faoligini ishga tishurish uchun, psixologik maslaxat, bazi hollarda esa emotsional holatlarini o`zi boshqarish treninglarini o`tkazish maqsadga muvofiqdir.

**Ijtimoiy- psixologik ko`nikish-** yangi ijtimoiy muhitga moslashish, kasbiy shaxslararo aloqalar va munosabatlar tizimiga qo`shilish, yangi ijtimoiy rollarni, xulq –atvor qonun –qoida normalarinim, guruhiiy qonun – qoida normalar va qadiryatlarni o`zlashtirish, o`zini kasbiy guruh bilan solishtirishdir. Yangi mutaxassislarda eng katta og`irlikni guruhiiy qonun qoidalarni o`zlashtirish va qaror topib bo`lgan shaxslararo aloqalarga qo`shilish tashkil etadi. SHuning uchun xam yosh mutaxassis uchun guruhiiy qonun –qoidalarga amal qilish majburiydir, ularning buzulishiga esa umuman yo`l qo`yib bulmaydi.

Bunday xollarda psixologik hamrohlik, yangi xodimga kasbiy qonun – qoidalarni buzulishi qanday natijalarga olib kelish borasida ogohlantirgan xolda, unga ushbu qonun-qoidalarni o`zlashtirishiga yordam beriladi. Ba`zi bir xollarda guruhiiy qonun-qoidalarga amal qilinmasligi tufayli, ziddiyatli vaziyatlar vujudga kelishi mumkin.

Bunda ziddiyatli vaziyatni hal qilishda psixologning tezkor aralashuvi darkor.

Kasbga ko`nikish va uni boshqarish o`lchash, tartibga solish va nazoratni o`z ichiga oladi. O`lchash (hisobga olish) adaptantlar kontingentlarni dastlabki aniqlashtirishni taqazo etadi. Barcha yangi ishga qabul qilinganlarni quydagi guruhlarga bo`lish mumkin.

- Kasb-hunar maktablari bitiruvchilari;
- O`rta maktab bitiruvchilari;
- Oliy o`quv yurtlari bitiruvchilari;
- Harbiy xizmatni o`tab qaytganlar;
- Ish stajiga ega, ammo ilgari bu sohada ishlamagan yangi xodimlar;
- Ish joyinin o`zgartirgan xodimlar.

SHaxsning kasbiy ko`nikish tezligi va darajasi haqida obektiv va subektiv ko`rsatkichlar asosida xulosa chiqariladi.

Har bir xodimning umumiy ko`nikuvchanligining obyektiv ko`rsatkichi –bu uning faoliyati samaradorligi hamda hayotning turli sohalaridagi faolligi hisoblanadi. Kasbiy ko`nikishning subektiv ko`rsatkichi esa malakalarining ish joyi talablariga



mos kelishidur. Ijtimoiy-psixologik moslashish uchun jamoa hayotida ishtrok etish, undagi ijtimoiy-psixologik maqomi, psixoviziologik ko`nikish uchun esa toliqish darajasi ahamiyatlidir.

Psixologik hamrohlik mutaxassisning amalda qanchalik kasbning ustasi ekanligini baxolash, malakasini oshirishga yordam berish, paydo bo`lgan kasbiy xislatlar yetishmaslik tuyg`ularini yengib o`tishga, kasbiy o`z o`zini baxolashni shakillantirishdan iboratdur. Psixologik hamrohlik o`zini **–ozi** baxolashning korreksiya qilishni nazarda tutadi, bunda:

- O`zini faqat o`zi bilan solishtirishni bilishga o`rgatish,
- O`zini-o`zi baxolashning ishonchli mezon (o`lchov)larini tuzishga yordam berish, faoliyat mohiyati va vazifalarini birgalikda tahlil qilish hamda uni mutaxassisning imkoniyatlari bilan solishtirish ishlari olib boriladi.

Ayrim hollarda, xodimni boshqa ishga o`tkazish masalasi qo`yilishi ham mumkin. Bunday vaziyatlar mutaxassisda qayg`uli emotsional holat- frustratsiya paydo bo`lishiga olib keladi. Psixologik yordam asosan, psixolog bilan birgalikda mutaxassisning yangi kasbiy hayot maqsadlarini ishlab chiqishdan iborat bo`ladi. Shunday qilib, ko`nikish davridagi psixologik hamrohlik mutaxassisning kasb sohasida, shuningdek korxona, muassasa, tashkilotda kasbiy o`z-o`zini mukammallashtirish yo`nalishida muvaffaqiyatli o`lga siljishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. G`oziev. E.G`., Mamedov K.K. Kasb psixologiyasi. Toshkent, 2003.
2. Xaydarov F., Xalilova N. Kasb psixologiyasi, T., 2010.
3. G`oziev. E.G`., Kasb va shaxs. Toshkent, 1996.
4. Z.B. Qurbanova D.D. Oribboyeva ., Mehnat va muhandislik psixologiyasi "Usmon nosir media" Namangan 2022
5. Кулагин Б.В. Основы профессиональной психодиагностики. Л..1984.
6. Z.T. Nishanova, SH.T. Alimbayeva, M.V. Sulaymanov " Psixologik xizmat" darslik Toshkent-2014
7. Abdurahmonov Q., Bozorov N., Volgin N. va boshqalar. «Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi». Toshkent: «O`qituvchi»-2001 yil
8. Shoyusupova N.T. «Mehnat sotsiologiyasi» Toshkent-2004 yil

O`QUVCHILARDA LIDERLIKKA TO`SQINLIK QILUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR



Zokirjonov Abbosbek, Komilxo‘jayev Zohidjon. About effectiveness of using creativity and creativity in the educational system.....	439
Zokirjonov Abbosbek Zokirjon o‘g‘li. Lider shaxsining asosiy besh elementi.....	443
Hakimova Nilufar. Sharq allomalarining musiqa to‘grisidagi qarashlari.....	447

19.00.00

PSIXOLOGIYA FANLARI

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

PSYCHOLOGICAL SCIENCES

Muhammadjanov Jahongir. Salbiy modal emotsiya sifatida—agressiyaning namoyon bo‘lishi.....	451
Yo‘ldasheva Sojida Zoyirovna, Nizomov Behruz Umar o‘g‘li, Naimova Shahina Shamshe qizi. Ingliz tilini tez yodlashning psixologik usullari.....	458
Muzaffarova Gulnoza Muzaffar qizi. O‘zbekistonda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va millatlararo totuvlik.....	465
O‘rolova Sojida Xayitboy qizi. Zamonaviy o‘qituvchi shaxsining o‘ziga xos psixologik susiyatlari.....	470
Rahmonjonova Gulijahon Rahmonjon qizi, Ilmiy rahbari: M.N.Mamajonova. Tohir Malik asarlaridagi jargonlarning lingvistik xususiyatlari.....	476
Jurayev Haydarjon Odilboyevich. Shaxs va uning kasbga ko‘nikishida psixologik omillarning o‘rni.....	478
Turamov Muhammadzohid Rustamjon o‘g‘li. O‘quvchilarda liderlikka to‘sqinlik qiluvchi psixologik omillar.....	482
Mirzajonova Eleonora Topvoldiyevna, Solijonova Yoqutxon Abbosjon qizi. Ayollarning oiladagi, jamiyatdagi o‘rnini yuksaltirishda, sifatli ta‘lim va psixologik qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati.....	486
Zarnigor Ergasheva. Yolg‘izlik muammosining teologik va milliy psixologik jihatdan ifodalanishi.....	491
Тошболтаева Нодира Иброхимжоновна, Абдумаликов Аббос Жуманазар ўғли, Латипова Муножат Рустамовна. Мактабгача таълим ёшидаги болалар фаолиятини психологик тахлили.....	495